

# IBMning Onlayn maxfiylik to'g'risidagi bayonoti

Ushbu Bayonot 2018 yilning may oyidan boshlab amal qiladi.

Sizning maxfiylikingiz IBM uchun muhim; ishonchingizni saqlash biz uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Ushbu bayonot IBM va uning sho'ba kompaniyalari veb-saytlari uchun axborotga islov berish usullarini ochib beradi, bizning veb-saytimiz foydalanuvchilari haqida qanday ma'lumot to'plannayotgani va qanday kuzatib borilyotganligi va ma'lumotlarning qay tarzda ishlatilayotganligi, uzatilayotganligi yoki boshqa usulda oflayn rejimda ishlov berilayotganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, unda IBM Cloud xizmatlar va dasturiy ta'minot mahsulotlarida cookie fayllari, veb-mayoqlari va boshqa texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligi tariflangan. Ushbu Maxfiylik Bayonotidagi IBM veb-saytlariga, mahsulotlariga va xizmatlariga qilingan havolalar, dasturiy ilovalar, dasturlar va qurilmalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu IBMning Onlayn Maxfiylik to'g'risidagi Bayonoti [IBMning Maxfiylik to'g'risidagi Bayonotini](#) to'ldiradi.

Ushbu boyonot IBM ning mazkur Bayonotga havolalari bor bo'lgan veb-saytlarga tegishli bo'lib, maxfiylik to'g'risidagi o'z bayonotiga ega bo'lmagan vab-saytlarga taalluqli emas. Bundan tashqari, biz mijozlar nomidan ularning manfaatlarini uchun ma'lumotlarga shunchaki ishlov beradigan hollarga tegishli emas, masalan, biz veb-provayderi xizmatini ko'rsatuvchi veb-xosting sifatida ishtirok etadigan hollarda.

Biz vaqti-vaqti bilan mazkur bayonotni siz bilan konkret o'zaro aloqalarimizga tegishli bo'lgan qo'shimcha ma'lumot xususan, transaksiya xujjati yoki onlayn-xizmatidan foydalanishga buyurtmaning mahfiyligi to'g'risidagi ma'lumot bilan to'ldirib turishimiz mumkin.

Mazkur bayonotda tariflanganidek, IBM ning Maxfiylik amaliyoti, ibm.com orqali to'plangan ma'lumotlarga tegishli bo'lganligi sababli,

u APEC ning transchegaraviy qoidalari tizimiga mos keladi. APEC ning transchegaraviy maxfiylik qoidalari tizimi tashkilotlarga APEC ning ishtirokchi-mamlakatlari o'rtasida almashinayotgan shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash mezonlarini taqdim etadi. APEC mezonlari haqidagi batafsil ma'lumotni [shu erda](#) (PDF, 87KB) [topishingiz](#) mumkin.

Maxfiylik siyosati yoki maxfiylikni ta'minlash usullari bo'yicha savollaringiz yoki shikoyatlaringiz bo'lsa, iltimos, [IBM veb-sayt koordinatoriga](#) murojaat qiling. Agar maxfiylik yoki ma'lumotlardan foydalanish borasida biz hal eta olmagan muammolaringiz qolgan bo'lsa, iltimos, <https://feedback-form.truste.com/watchdog/request> [manzilidagi](#) AQShda joylashgan nizolarni hal etish bo'yicha provayderiga bepulmurojaat qiling.

↓ [Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash](#)

↓ [Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish](#)

↓ [Saqlash](#)

↓ [Cookie fayllar, Veb-mayoqlari va Boshqa Texnologiyalar](#)

↓ [Onlayn Reklama](#)

↓ [Boshqa kompaniyalar \(IBM ga tegishli bo'lmagan\) veb-saytlari va boshqa dasturlarga havolalar](#)

↓ [O'zgartirishlar to'g'risida bildiruv](#)

↓ [Maxfiylikga oid Savollar va Kirish](#)

**Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash**

**Muqaddima**

Siz qator xollarda shaxsiy ma'lumotlaringizni bevosita bizga berishni afzal ko'rishingiz mumkin. Masalan, ismingizni va aloqa ma'lumotlaringizni siz bilan yozishib turish, maxsulot buyurish, buyurtmaga ishlov berish, xizmatdan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tkazish, obunani yoki yetkazib beruvchi yoki biznes-hamkor sifatida biz bilan hamkorlikni rasmiylashtirish uchun bizga ma'lum qilishingiz mumkin. Siz shuningdek, bizdan xarid qilish uchun kredit kartangiz ma'lumotlarini berishingiz, yoki IBMda siz talabgor bo'lgan ish o'rni ning ochilishi munosabati bilan ma'lumotingiz va ish tajribangiz to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishingiz mumkin. Agar siz bundan keyin siz bilan bo'g'lanish uchun sizning ma'lumotlaringizdan foydalanishimizni istamasligingizni ko'rsatsangiz, u xolda sizning so'rovingizdan tashqari sizning tilaklaringizni inobatga olgan holda ish yuritamiz.

### Ro'yxatdan o'tish

Ma'lumot olishni, nashrlarni yuklab olishni, real yoki virtual tadbirda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tishni yoki maxsulotning sinov nus'hasini so'rasangiz, biz sizning ismingiz va xizmatda bog'lanish ma'lumotlarini hamda so'rovingiz bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni taqdim etishingizni so'rashimiz mumkin. Ushbu ma'lumotdan sizning so'rovingiz munosabati bilan va siz bilan bog'lanish uchun foydalanamiz. Ushbu ma'lumot, shuningdek bizning veb-saytlarimizga kirganingizda aksariyat hollarda sizni identifikatsiyalashi ham mumkin. Biz ma'lumotlaringizni kelgusidagi potensial o'zaro munosabatlarimiz uchun saqlaymiz.

Biz shuningdek, sizdan IBMidni ro'yxatdan o'tkazishingizni so'rashimiz mumkin, buning uchun siz bizga ismingiz, electron pochta manzilingizni, joylashgan mamlakatingiz va siz ro'yxatdan o'tish maqsadi uchun zarur bo'lsaboshqa ma'lumotlarni taqdim etishingiz kerak. IBMid veb-saytlarimizga so'rov yoki buyurtma berishingiz yoki mahsulot yoki xizmatdan foydalanganingizda sizni bexato identifikatsiyalash imkonini beradi. Ko'plab xizmatlar va mahsulotlarni buyurtma qilish uchun sizdan IBMidni ro'yxatdan o'tkazishni talab qilamiz. IBMid yordamida ro'yxatdan o'tish sizga maxfiylik parametrlaringizni sozlash va nazorat qilish imkonini beradi. IBMning ayrim mahsulot va xizmatlari aynan shu mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etish uchun antiqa ravishda ro'yxatdan o'tishni talab qilishi mumkin. Bunday hollarda mahsulot yoki xizmat uchun taqdim etgan ro'yxatga olish ma'lumotlari faqat ushbu mahsulot yoki xizmatni taqdim etish uchun ishlatiladi.

### Veb-saytlar va IBM Cloud xizmatlariga kirish

Shuningdek, turli texnologiyalardan foydalangan holda, veb-saytlarimiz va IBM Cloud xizmatlaridan foydalanishingiz bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plashimiz mumkin. Masalan, veb-saytlarimizga kirganingizda yoki IBM Cloud xizmatlaridan foydalanganingizda, sizning brauzeringiz bizga yuboradigan muayyan ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazishimiz mumkin masalan, IP-manzilingiz, (jumladan, sizning IP manzilingizdan olingan ma'lumotlarmasalan, geografik joylashgan yeringiz), brauzer turini, versiyasini va tili, veb-sayt manzillariga kirish vaqti, kirish muddati va ularga qilingan havolalar; biz shuningdek, saytlarimizda ko'rib chiqayotgan sahifalar, saytlarning har birida o'tkazayotgan vaqtingiz, saytimizga kirgan vaqtdagi boshqa hatti-harakatlaringiz to'g'risidagi ma'lumot to'plashimiz mumkin. Bizning veb-saytimizga IBMidimiz yoki avtorizatsiyasiz kirganingizda ham, shunga qaramay biz veb-saytning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan ko'satilgan shaxsiy ma'lumotlarning bir qismini olamiz.

Bundan tashqari, ba'zi dasturiy mahsulotlarimiz va IBM Cloud xizmatlari IBMga mahsulot va xizmatlarimizdan foydalanish haqida muayyan ma'lumotlarni to'plash imkonini beradigan texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Biz shuningdek, siz elektron pochta ochganingiz yoki elektron pochta bo'lgan murojaat yoki havolani bosganingizni aniqlash kabi texnologiyalardan foydalanishingiz mumkin. Biz qo'llayotgan texnologiyalar haqida batafsil ma'lumot olish uchun, quyidagi [Cookielar](#), [Veb mayoqlar](#) va [Boshqa Texnologiyalar](#) bo'limiga qarang.

### Marketing ma'lumoti

Siz haqingizda to'plangan ko'pgina ma'lumotlarni siz bilan bevosita aloqalarimizdan kelib chiqqan xolda toplaymiz.

Vaqt vaqt bilan, biz shuningdek, sizga bilvosita tegishli bo'lgan ma'lumotlarni boshqa manbalardan, masalan, yetkazib beruvchilar ro'yxatidan to'plashimiz mumkin. Bunday xollarda biz sotuvchilardan ma'lumot uchunchi tomondan qonuniy olinganligini va ulardan uni olish huquqiga ega ekanligimizni tasdiqlashlarini so'raymiz.

Tadbirlar uchun ro'yxatdan o'tayotganingizda, biz tadbirni tashkil qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni (onlayn yoki oflayn shakilda), tadbir vaqtida esa, sessiyalardagi ishtirokingiz va so'rov natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashimiz mumkin. Tadbirlarni yozib olishimiz va guruhli rasmga olinishimiz mumkin. Reklama maqsadida fotosuratlarini ishlatish huquqini saqlab qolamiz. Bizga aloqa qilish ma'lumotlarini taqdim etganingizda (masalan, tashrif kartochningizni berganingizda) uni siz bilan aloqa qilish uchun ishlatishimiz mumkin.

Biz to'pladigan ma'lumotlarning umumiy aniqligi va to'liqligini yaxshilashga va o'zaro aloqalarimizni yaxshiroq moslashtirishga yordam berishi uchun bevosita yoki bilvosita umumlashtirilishi mumkin.

[↑ Boshiga qaytish](#)

## Shaxsiy Ma'lumotlardan foydalanish

Keyingi paragraflarda IBM sizning shaxsiy ma'lumotlaringizdan qanday foydalanishi batafsilroq tariflanadi.

## Transaksiyaga bo'lgan so'rovni bajarish

IBMdan biror narsani, masalan, mahsulot yoki xizmat qayta qo'ng'iroq yoki ma'lum marketing materiallarini so'rasangiz, so'rovingizni bajarish uchun siz taqdim qilgan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanamiz. Buni amalga oshirishda bizga yordam bo'lishi uchun biz boshqalar bilan ma'lumot almashishimiz mumkin, masalan, bajarishga jalb qilingan IBM biznes hamkorlari, moliya tashkilotlari, transport kompaniyalari, pochta yoki davlat organlari, masalan bojxona organlari. Shuningdek, biz mijozlar qoniqqanligini o'rganish yoki bozorni tadqiq qilish doirasida siz bilan bog'lanishimiz mumkin.

## Tajribangizni veb-saytlarimizda shaxsiylashtirish

Veb-saytlarimizda siz bilan o'zaro aloqani shaxsiylashtirish uchun siz haqingizda to'plangan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin, xususan, sizni qiziqtirgan hamda navigatsiyani soddalashtirish uchun axborot materiallarni sizga taqdim etish uchun. Shuningdek, biz ushbu ma'lumotdan veb-saytlarimizni yaxshilash uchun foydalanishimiz mumkin.

## Qo'llab-quvvatlash

Biz shaxsiy ma'lumotlaringizdan bizdan olgan mahsulot va xizmatlarni qo'llab-quvvatlash, xususan, mahsulotlarning yangilanishi yoki o'zgartirilishi to'g'risida xabarlash uchun foydalanishimiz mumkin. Mahsulotni qo'llab-quvvatlash borasida muhimroq tavsiyalarni sizga taqdim qilish uchun sizning ma'lumotlaringizni siz bilan boshqa o'zaro aloqalardan olgan ma'lumotlar bilan birlashtirishimiz mumkin.

Saytlarimiz yoki forumlarimizda navigatsiyani soddalashtirish maqsadida biz shuningdek, veb-saytlarimizda Live Chat seanslarini taklif etib, unda muammolar ko'tarilishi va ularning yechimlari taklif etilishi mumkin; bunday sessiya yoki forumlarda taqdim etiladigan shaxsiy ma'lumotlardan mazkur Maxfiylik to'g'risidagi bayonotga muvofiq foydalanamiz.

Sizga texnik yordam ko'rsatish davomida, biz vaqt-vaqti bilan siz bizga taqdim etgan ma'lumotlardan, yoki sistemangizda saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar siz haqingizda, tashkilotingiz xodimlari, mijozlari, hamkorlari yoki etkazib beruvchilari haqida ma'lumotni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu Maxfiylik Bayonoti bizning bunday shaxsiy ma'lumotlarga kirishimiz yoki ularga ishlov berishga taalluqli emas; ushbu ma'lumotni ko'rib chiqish va qayta ishlashga tegishli shartlar sizning va IBM o'rtasida tuzilgan Foydalanish shartlari (Terms of Use) yoki boshqa kelishuvlar, masalan, Diagnostika ma'lumotlarini almashish uchun foydalanish shartlari (Terms of Use for Exchanging Diagnostic Data)ni qamrab olinadi.

## IBM Cloud xizmatlari

Biz, dasturli mahsulotlarimiz va IBM Cloud services samaradorligini aniqlash; mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz; tajribalarini yaxshilash va ishlatishni personallashtirish; -siz bilan o'zaro aloqalarimizni moslashtirish; xizmatlardan umumiy foydalanish to'g'risida mijozlarimizni xabardor qilish; ko'maklashish; mahsulot va xizmatlarimizni takomillashtirish va rivojlantirish imkoniyati bo'lishi uchun sizning "IBM Cloud" xizmatlaridan foydalanishingizda to'plangan ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin.

## Marketing

IBMga taqdim etgan shaxsiy ma'lumot va bilvosita siz haqingizda to'plangan shaxsiy ma'lumotlar IBM tomonidan marketing maqsadlari uchun foydalanilishi mumkin, ya'ni IBM tomonidan sotiladigan, mavjud mahsulotlar portfelini to'ldirishi mumkin bo'lgan voqealar, mahsulotlar, xizmatlar va yechimlar to'g'risida sizni xabardor qilish uchun ishlatilishi mumkin. Biroq, buni bajarishdan oldin, biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni shu tarzda ishlatish yoki ishlatmaslikni tanlash imkoniyatini taqdim etamiz. Sizga qo'ng'iroq qilganimizda yoki bizga bevosita murojaat etib, sizga yuborilayotgan har bir elektron xabarda mavjud bo'lgan tegishli yo'riqnomaga rioya qilgan holda, istalgan vaqtda bizga xabar berib, marketing xabarlarimizni olishdan voz kechishingiz mumkin (Iltimos, quyida keltirilgan "Maxfiylik Savollari va Kirish" bo'limiga qarang).

Takliflarimiz yoki tadbirlarimizdan ba'zilari IBM va uning biznes- hamkorlari bilan qo'shma brendi bo'lishi, yoki IBM va IBM mahsulot va xizmatlarini ishlatuvchi, qayta sotuvchi yoki to'ldiruvchi hamkorlar va yechimlarni yetkazib beruvchilar kabi, uchinchi shaxslar tomonidan homiylashtirilishi mumkin. Qo'shma brendlar bo'lgan takliflar va tadbirlar, hamkorlikning mavjudligini bevosita ko'rsatib turadi. Agar siz ushbu taklif yoki tadbirlar uchun ro'yxatdan o'tsangiz, sizning ma'lumotlaringiz ham to'planishi va uchinchi shaxslarga

uzatilishi mumkinligini ko'zda tuting. Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz uchinchi taraf tomonidan qanday ishlatilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun mazkur maxfiylik siyosati bilan tanishtirishingizni tavsiya etamiz.

Agar siz ushbu sahifani do'stingizga yoki hamkasbingizga elektron pochta orqali yuborishga qaror qilsangiz, biz ularning ismlarini va elektron pochta manzilini so'raymiz. Biz avtomatik tarzda bir martalik elektron pochta xabarni siz ko'rsatgan sahifa bilan birga yo'llaymiz, lekin boshqa maqsadlarda bu ma'lumotni ishlatmaymiz.

### **Ishga qabul qilish**

Ishga qabul qilish to'g'risidagi ariza yoki vakansiya to'g'risida so'rov jo'natishda, u IBM saytida yoki boshqacha tarzda chop etilgan- etilmaganidan qat'iy nazar, bizga o'zingiz haqingizda ma'lumot, xususan, rezyume yuborishingiz mumkin. Biz bu ma'lumotdan so'rovingizga javob berish yoki ishga joylashtirish uchun nomzodingizni ko'rib chiqishda foydalanishimiz mumkin.

### **Qo'ng'iroqlarni, Chatlardagi suhbatlar va o'zaro floqalarning boshqa turlari monitoringi va yozib olish**

Ayrim onlayn-transaksiyalar yoki sizning bizga qo'ng'iroq qilishingizni, yoki bizning sizga qo'ng'iroq qilishimizni nazarda tutishi mumkin. Ular shuningdek onlayn-chatlari orqali biz bilan aloqa qilishingizni nazarda tutishi mumkin. Shuni nazarda tutingki, IBM bunday suhbatlar monitoringini (ayrim xollarda shuningdek yozib borishni ham) personalni o'rgatish, xodimlar ishi sifatini baholash uchun amalga oshiradi yoki muayyan transaksiyaning bajarilganligi dalillarini saqlaydi.

### **Ma'lumotlardan ijtimoiy hisoblash muhitida foydalanish**

IBM ba'zi veb-saytlarida ijtimoiy hisoblash vositalarini on-layn rejimda, shuningdek, ulardan foydalanish maqsadida ro'yxatdan o'tgan guruh a'zolari orasida ularni birga ishlatish uchun taqdim etadi. Bularga forumlar, wikilar, bloglar va boshqa ijtimoiy mediya platformalari kiradi.

Bunday dasturiy ilovalarni yuklash va ishlatishda, shuningdek, bunday ijtimoiy vositalarda ro'yxatdan o'tishda, sizga qator shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish taklif etiladi. Ro'yxatga olish ma'lumotiga mazkur Maxfiylik to'g'risidagi bayonotga muvofiq ishlov beriladi va himoyalanaadi, profilingiz doirasida boshqa ishtirokchilar uchun avtomat tarzda ochiq bo'lib qoladigan ma'lumotlar bundan mustasno. Bu dasturiy ilovalar va asboblar to'plash va ishlov berish to'g'risida konkret ma'lumotli maxfiylik to'g'risidagi qo'shimcha bayonotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Asboblar va dasturiy ilovalarning imkoniyatlarini tushunish uchun ushbu qo'shimcha yo'riqnomalar bilan tanishib chiqing.

Siz ushbu ijtimoiy platforma va dasturiy ilovalarda joylashtirayotgan, boshqa foydalanuvchilarga foydalanishga ruxsat beradigan materiallar, xususan, tasvirlar, ma'lumot, fikrlar va boshqa shaxsiy ma'lumotlarga mazkur Maxfiylik to'g'risidagi bayonot tegishli emas. Bunday materiallar mazkur dasturiy ilova va platformalardan foydalanish Qoidalari, shuningdek, ulardan foydalanish bo'yicha har qanday qo'shimcha qollanma va yo'riqnomalarga bo'sunadi; ko'rsatilgan dasturiy ilova va platformalardan bunday materiallarni o'chirish jarayonlari ham shu tariqa (mustaqil tarzda yoki uchinchi shaxslar yordamida) tartibga solinadi. O'zingizning, IBMva boshqa tarafdarning shunday materiallar borasidagi huquq va majburiyatlariningizni yaxshiroq tushunib olishingiz uchun ko'rsatib o'tilgan xujjatlar bilan tanishib chiqing. Siz shunday ijtimoiy hisoblash platformalarida joylashtiradigan materiallardan IBMning ichidagi va tashqarisidagi boshqa shaxslar ham foydalana olishi mumkinligini inobatga oling.

### **IBM va uchinchi shaxslarning Huquq va Mulkini himoya qilish**

Biz shuningdek, IBM kompaniyalari, biznes-hamkorlarimiz, mijozlarimiz va boshqa shaxslarning huquqlari va mulkini himoya qilish maqsadida ham, bunday huquq yoki mulkka putur yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin degan jiddiy asos bo'lgan xolda, ma'lumotingizni ishlatishimiz va unga umumiy ruxsat berishimiz mumkin. Bundan tashqari, sizning qonun talablariga muvofiq va biz o'z huquqlarimizni yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, bizning fikrimizcha veb-saytimiz borasida sud jarayoni va sud jarayonlari doirasida, sud qarorini bajarish uchun oshkor qilish zarur deb hisoblagan xollarimizda shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilish huquqini saqlab qolamiz.

### **Biznes hamkorlar uchun ma'lumot**

Siz IBM biznes hamkori bo'lsangiz, IBM biznes hamkorlari uchun maxsus mo'ljallangan IBM veb-saytlariga kirishingiz mumkin. Biz ushbu saytda berilgan ma'lumotdan siz bilan, siz vakil bo'lgan biznes hamkor, va umuman IBM biznes hamkorlari bilan biznes aloqalarimizni rivojlantirish va ularni boshqarish uchun foydalanishimiz mumkin. Masalan, bunga IBMning biznes hamkorlaridan dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sizga yuborish uchun ma'lumotlaringizdan foydalanish kiradi. Shuningdek, bunga IBMning joriy va potensial mijozlari tomonidan boshqa biznes hamkorlarga muayyan ma'lumotlarni (barcha amaldagi maxfiylik to'g'risidagi

kelishuvlarga muvofiq) taqdim etish kiradi. Biz shuningdek, marketing so'rovi-mijozlarning qoniqtirilganligini baholashni o'tkazish uchun yoki konkret dastur yoki transaksiyani bajarish jarayonida bozorni tadqiq qilish maqsadida siz bilan bog'lanishimiz mumkin.

### Yetkazib beruvchilar uchun ma'lumot

Siz IBM yetkazib beruvchining vakili bo'lsangiz, IBMning etkazib beruvchilari uchun maxsus mo'ljallangan IBM veb-saytlariga kirishingiz mumkin. Biz ushbu saytda berilgan ma'lumotdan siz bilan transaksiyani tuzganimizda yoki bajarganimizda foydalanishimiz mumkin. Xususan, bunga transaksiyaning bajarilishiga jalb qilingan IBMning boshqa qismlari, IBM biznes hamkorlari, mijozlari, transport kompaniyalari, moliyaviy institutlar, pochta idoralari va davlat tashkilotlari o'rtasida ma'lumot almashinish kiradi. Shuningdek, bu ma'lumotlar siz bilan, siz vakil bo'lgan etkazib beruvchi bilan, va boshqa IBM umumiy etkazib beruvchilari bilan bo'lgan munosabatlarimizni boshqarish va rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin.

### Bolalar

Boshqacha belgilanmagan bo'lsa, bizning veb-saytlarimiz, mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz 16 yoshgacha bo'lgan bolalar tomonidan foydalanishga mo'ljallanmagan.

[↑ Boshiga qaytish](#)

### Saqlash

IBM sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni, ularga ishlov berilayotgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtgacha yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, saqlab turadi (masalan, huquqiy majburiyatlarimizga mos bo'lish, nizolarni hal qilish yoki kelishuvlarimizning bajarilishini ta'minlash).

Sizning ro'xatdan o'tish ma'lumotlaringiz ro'yxatga olish yozuvingiz yoki IBMid sizga xizmat ko'rsatish talab etilguniga qadar faol bo'lgunicha saqlanadi. Sizga xizmat ko'rsatish uchun sizning ro'yxatdan o'tish ma'lumotlaringizdan foydalanishni to'xtatishimizni istasangiz, q'uyidagi manzilga murojaat eting [NETSUPP@us.ibm.com](mailto:NETSUPP@us.ibm.com). Biz IBM bilan xizmat ko'rsatishga shartnoma tuzgan mijozlari tomonidan sizga IBM Cloud xizmatlaridan foydalanishga ruxsat etilgan IBM Cloud services borasida sizning ro'yxatga olish ma'lumotlaringiz ushbu IBM mijozining muayyan talablarini bajarish uchun saqlanishi mumkin.

[↑ Boshiga qaytish](#)

### Cookie fayllari, veb-mayoq va boshqa texnologiyalar

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bizning veb-saytimizga kirganingizda va IBM Cloud servisdan, shuningdek dasturli mahsulotlarimizdan foydalanayotganingizda, foydalanish statistikasini to'plash va samaradorlikni tahlil qilish, siz bilan o'zaro aloqalarimizni personallashtirish va muvofiqlashtirish, hamda mahsulotlarimiz va servisini yaxshilash maqsadida ma'lumot to'playmiz. Biz buni turli xil texnologiyalar, jumladan skriptlar, teglar, mahalliy almashinadigan obyektlar (Flash cookies), mahalliy xotira (HTML5) mayoqlari va cookie-fayllar yordamida amalga oshiramiz.

### Cookie fayllar nima va cookie fayllar nima uchun ishlatiladi

Cookie - veb-sayt brauzeringizga yuboradigan ma'lumotlarning bir qismi bo'lib, keyinchalik u kompyuteringizda kompyuteringizni identifikatsiya qiluvchi yorliq sifatida saqlanishi mumkin. Garchi Cookie- fayllar faqat veb-saytlardan foydalanishni (xususan, kiruvchilar soni va tashrif muddatini aniqlash) va samaradorligini (xususan, foydalanuvchilarni ko'proq qiziqtirgan mavzularni aniqlash uchun) tahlil qilish, shuningdek, sayt bo'ylab navigatsiyani soddalashtirish va undan shu sifatda foydalanish uchun ishlatilsada, ular biror bir personallashtirilgan ma'lumotlar bilan assotsiyalashtirilmaydi, shuningdek ular ba'zan, profil ma'lumotini foydalanuvchilarning afzal ko'rishlari bilan solishtirish yo'li bilan veb-saytga kiruvchilarni identifikatsiyalash uchun ham qo'llanadi. Vaqt o'tishi bilan bu ma'lumotlar foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa qilishda o'ta foydali bolib qoladi.

Cookieilar odatda "seans cookie'lari" yoki "doimiy cookie'lari" ga bo'linadi. Seans cookie fayllari veb-sayt bo'ylab navigatsiyani samaraliroq amalga oshirishingizda yordam beradi va saytga joriy kirishingizda yoki transaksiyani yakunlashga zarur bo'lgan dastlab taqdim etgan ma'lumotlarni qaytadan taqdim etmasligingiz uchun sahifadan sahifaga o'tishingizni kuzatib borishimizga imkon beradi. Seans cookie fayllari vaqtinchalik xotirada saqlanib, veb brauzer yopilgan paytida o'chib ketadi. Aksincha, doimiy cookie fayllari foydalanuvchilarning joriy va keyingi kirishlari uchun ularning tanlovlarini saqlaydi. Ular qurilmangizning qattik diskiga yozilib, siz o'z brauzeringizni qayta yoqqaningizda saqlanadi. Biz doimiy cookie'larni, masalan, siz tanlagan til va mamlakat nomini yozish uchun ishlatamiz.

## Cookie fayllarini ishlatish borasida maxfiylik tanlovini qanday ifodalash mumkin

Veb-saytlarimizga yoki onlayn xizmatlarga kirganingizda, veb-brauzeringiz yoki IBM tomonidan sizga taqdim etiladigan parametr va vositalardan foydalanib, cookie-fayllar va shunga o'xshash boshqa texnologiyalarga bog'liq tanlovlarni belgilashingiz mumkin. Agar s IBM tomonidan cookie-menejeri oqollangan bo'lsa, u bizning veb-saytingizga birinchi bor kirishingizda aks ettiriladi. IBM veb-saytining quyi kolontitulidagi 'Cookie fayllarini sozlashni' bosib, istagan vaqtda IBM Cloud xizmatlarida va veb-saytlarimizda cookie fayllarining qanday turini ishlatishni tanlashingiz va o'zgartirishingiz mumkin. Siz majburiy yoki majburiy va samarali, yoki majburiy, samarali va personallashtirilgan cooke fayllaridan birini tanlashingiz mumkin. Bu erda siz shuningdek, ishlatadigan cookie fayllari turlari haqida qo'shimcha ma'lumot olishingiz mumkin. Cookie fayllarini sozlamalaridan foydalanish sizning qurilmangizdagi cookie-fayllarni o'chirishga olib kelmaydi. Siz qurilmangizdagi cookie fayllarini veb-brauzeringiz sozlamalari orqali o'chirib tashlashingiz mumkin.

Bugungi kunda IBM veb-saytlari, onlayn va Cloud xizmatlar kuzatuv mexanizmlari, xususan, «do not track» (kuzatmaslik)ga tegishli avtomatlashtirilgan brauzer signallarini tanimas ekan, siz ko'pchilik cookie-fayllarni va shunga o'xshash texnologiyalardan foydalanish bo'yicha maxfiylik tanlovlarni veb-brauzeringiz orqali ifoda etishingiz mumkin. Cooke fayllarini nazorat qilish to'g'risida ma'lumot olish uchun O'z brauzeringizning "Sozlamalar" (Tools)(yoki shunga o'xshash bo'limiga) bo'limiga murojaat eting. Ko'pgina hollarda brauzeringizni cookie-fayllarni qabul qilish-qilmaslikni hal qila olishingiz uchun oldindan bu faylni qabul qilish to'g'risida sizni xabardor etadigan qilib sozlashingiz mumkin. Siz shuningdek brauzeringizda cookie fayllarini umuman o'chirib qo'yishingiz mumkin. Bizning dasturiy maxsulotlarimizda qo'llanadigan Cookie fayllarni shu mahsulotlar sozlamalarining o'zida o'chirib qo'yish mumkin. Cookie-fayllar veb-saytlaringizning yoki dasturiy mahsulotlarimiz va IBM Cloud xizmatlarining qator funksiyalari dan foydalanish imkonini berar ekan, ularni o'chirib qo'ymaslikni tavsiya etamiz. Agar bizning cookie-fayllarimizni bloklangiz, to'xtatsangiz yoki islatishni boshqacha taqiqlasangiz, ba'zi veb-sahifalar noto'g'ri ko'rinishi yoki siz xaridlar savatchangizga elementlarni qo'sha olmaysiz, buyurtmaga to'lovni amalga oshira olmaysiz, yoki veb-sayt yoki saytga kirishni talab qiladigan IBM Cloud xizmatlaridan foydalana olmaysiz.

## Veb mayoqlar yoki boshqa texnologiyalar

Ba'zi IBM veb-saytlari, IBM Cloud xizmati va dasturiy mahsulotlar ham mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga mazkur saytlarni yaxshiroq muvofiqlashtirish uchun veb-mayoqlarni ishlatishi mumki. Ushbu texnologiyalar IBM veb-saytlarining turli sahifalarida ishlatilishi mumkin. Bu sahifalarga kirganda, saytga kirganlik to'g'risida identifikatsiyalanmaydigan xabar paydo bo'lib, keyinchalik u biz tomondan yoki yetkazib beruvchilarimiz tomonidan ishlanishi mumkin. Ushbu veb-mayoqlar odatda cookie-fayllar bilan birga ishlatiladi. Agar siz cookie fayllaridan olgan ma'lumotlaringizni ushbu sahifalarga kirishingiz yoki bu maxsulotlardan foydalanishingiz bilan solishtirilishini istamasangiz, brauzeringiz yoki maxsulotdagi cookie fayllarni o'chirib qo'ying. Agar cookie-fayllarni o'chirsangiz, veb-mayoq va boshqa texnologiyalar avvalgidek bu sahifalarga kirishlaringizni kuzatib boradi; ammo kirishlarni cookie-fayllarda saqlanadigan ma'lumotlar bilan bog'lamaydi.

IBM Cloud xizmati va dasturiy hsulotlarimiz 'qo'llaydigan texnologiyalar, shuningdek, bunday texnologiyalarni o'chirish haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchunkonkret dasturiy maxsulot yoki IBM Cloud xizmatlariga oid qo'llanmaga murojaat qiling. IBM mijozlari IBM dasturiy mahsulotlaridan va IBM Cloud xizmatlaridan mustaqil foydalanishda cookie-fayllarni va boshqa texnologiyalardan qanday foydalanishlari mumkinligi to'g'risida ma'lumot olish uchun [shu yerni bosing](#) (US).

Ma'lumotni va tanlovlarni saqlash uchun biz Mahalliy umumiy ob'ektlar (Local Shared Objects) va Flash cookies, mahalliy saqlash, jumladan HTML5 dan foydalanamiz. Saytimizda hamkorlikda biz qator funksiyalar taqdim etadigan yoki kirishlaringiz tarixi asosidagi IBM reklamasini aks ettiradigan uchinchi tomonlar ham Flash-cookies yoki HTML5-dan ma'lumotlar to'plash va saqlash uchun foydalanadi. Turli brauzerlar HTML5-ni o'chirib tashlash uchun o'zlarining xususiy boshqaruv vositalarini taqdim etishi mumkin. Flash cookie fayllarini boshqarish uchun,

[http://www.macromedia.com/support/documentation/en/flashplayer/help/settings\\_manager07.html](http://www.macromedia.com/support/documentation/en/flashplayer/help/settings_manager07.html)  ga kiring.

Biz shuningdek, foydalanuvchi xabarni ochganligi va unda ko'rsatilgan havola bo'yicha harakatlanganligini bilish uchun elektron pochta xabarlari yoki yangilik xabarlariga veb-mayoqlarni kiritishimiz mumkin.

Bizning biznes hamkorlarimizdan ba'zilar saytimizda veb-mayoqlarni va cookie-fayllarni o'rnatadi. Bundan tashqari, uchinchi tomon ijtimoiy media tugmalari muayyan ma'lumotlarni qayd etishi mumkin, xususan, sizning IP-manzilingiz, brauzer turi va tili, kirish vaqti va veb-sayt manzillari, agar o'sha ijtimoiy media tarmoqlariga kirgan bo'lsangiz, bu tugmalar to'plangan ma'lumotni shu saytdagi profilingiz ma'lumotlari bilan bog'lashi mumkin. Biz bunday uchinchi shaxslar tomonidan foydalaniladigan bunday texnologiyalarni nazorat qilmaymiz. Ba'zi veb-saytlarimizda statik materiallarni taqdim etish uchun foydalaniladigan "s81c.com" domen uchinchi shaxslar tomondan emas, balki IBM tomonidan boshqariladi.

[↑ Boshiga qaytish](#)

## Onlayn Reklama

IBM o'z veb-saytida uchinchi shaxslar reklamasini joylashtirmaydi, lekin o'z mahsulot va xizmatlari to'g'risidagi reklamalarni boshqa veb-saytlarda joylashtiradi. Iltimos, mazkur veb-sayt operatorlari va tarmoqli reklama beruvchilar qo'llaydigan reklama berish amaliyoti, xususan, siz internetga kirganingizda ular qanday ma'lumotlarni saqlay olishlari to'g'risida bilish uchun ularning maxfiylik siyosati bilan tanishib chiqing.

Biz foydalangan ba'zi reklama tarmoqlari Network Advertising Initiative (NAI) (tarmoqli reklama bo'yicha tashabbuslar) yoki European Interactive Digital Advertising Alliance (EDAA) (Yevropa interfaol reklama alyansi) a'zolari bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxslar quyidagi saytlarda ruxsat etilgan vositalardan foydalanib, NAI yoki EDAA foydalanuvchilarining reklama tarmoqlari taqdim etadigan maqsadli reklamadan voz kechishlari mumkin:

Digital Advertising Alliance (DAA): <http://www.aboutads.info/choices> [↗](#)

NAI: <http://www.networkadvertising.org> [↗](#) or

EDAA: <http://www.youronlinechoices.eu/> [↗](#)

Biz shuningdek reklamalarimizni boshqa saytlarda boshqarish uchun bir qator uchinchi shaxslar bilan hamkorlik qilamiz. Ushbu uchinchi shaxslar sizning tanlovlaringiz asosida IBMning maqsadli reklamalarini sizga ko'rsatish uchun cookie-fayllar va veb-mayoqlardan IBM sayti va boshqa saytlardagi faoliyatingiz haqida ma'lumot to'plash uchun (masalan, sizning IP-manzilingiz) foydalanishi mumkin:

- AQSh va Kanadada bunday individual reklama e'lonlari IBM reklamasini AdChoices belgisi bilan belgilangan chunki IBM o'z-o'zini boshqaradigan onlayn-reklama Digital Advertising Alliance dasturida ishtirok etadi ([youradchoices.com](http://youradchoices.com) [↗](#) va [youradchoices.ca](http://youradchoices.ca) [↗](#)). O'zingizning tanlovlaringizni boshqarish uchun reklama e'lonlaridan biridagi belgini bosib.
- Agar siz ushbu ma'lumot sizga individual reklama e'lonlarini ko'rsatish uchun foydalanmaslikni xohlasangiz, siz [bu yerga](#) [↗](#) bosib, voz kechishingiz mumkin.

Iltimos, shunga e'tibor beringki, bu maqsadga qaratilmagan reklamani olmasiz degani emas. Siz umumiy mazmundagi reklamarni qabul qilishda davom etaverasiz.

[↑ Boshiga qaytish](#)

## Non-IBM veb-saytlari va uchinchi tomon dasturiy ilovalarga havolalar

Sizning ro'yxat yozuvlaringiz mavjud bo'lgan boshqa veb-saytlar (masalan, Facebook va boshqa ijtimoiy media saytlari) bilan o'zaro aloqa qilish yoki shu kabi saytlarda jamoalarda ishtirok etish uchun sizga saytga kirish, material joylashtirish, veb-saytlarimizda jamoalarga qo'shilish imkonini beruvchi o'zga dasturiy ilovalarini taqdim etishimiz mumkin.

Biz shuningdek sizga IBM ga tegishli bo'lmagan boshqa veb-saytlarga umumiy havolalar taqdim etishimiz mumkin.

Bunday havola va dasturiy ilovalardan foydalanishingiz ularni taqdim etayotgan o'zga tashkilotlarning maxfiylik siyosatiga bo'ysinadi. Siz mazkur havolalar yoki dasturiy ilovalardan foydalanishdan oldin ushbu o'zga tashkilotlarning ma'lumotlar maxfiyligi siyosati bilan tanishib chiqishingiz kerak. IBM boshqa veb-saytlar ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash tartibi yoki mazmuni uchun javobgar emas.

[↑ Boshiga qaytish](#)

## O'zgartirishlar to'g'risida bildiruv

Agar ushbu Maxfiylik Bayonotiga biron-bir muhim o'zgarishlarni kiritadigan bo'lsak, biz sizni bizning veb-saytimiz orqali va o'zgacha tarzda amaldagi qonun talablariga muvofiq xabardor qilamiz.

[↑ Boshiga qaytish](#)

## Maxfiylikka va Kirishgategishli Savollar

Agar ushbu Maxfiylik Bayonoti yoki sizning ma'lumotlaringiz ga IBM kompaniyasi tomonidan islov berilishi haqida savolingiz bo'lsa, [IBM veb-sayt koordinatoriga](#) elektron maktub yuboring. Shuningdek, siz biz bilan quyidagi manzil bo'yicha bog'lana olasiz:

IBM's Corporate Privacy Office (IBMning Korporativ Maxfiylik bo'limi)  
1 New Orchard Road  
Armonk, NY 10540  
U.S.A.

Ayrim holatlarda, siz shaxsiy ma'lumotlaringizni ko'rib chiqish va tahrir qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Sizning ma'lumotingizni internet orqali olish imkoniyati bo'lmasa va siz IBMga bergan biror ma'lumot nus'hasini olmoqchi bo'lsangiz, yoki agar siz ma'lumotlardagi noaniqlik borligidan xabardor bo'lsangiz va buni to'g'rilashimizni istasangiz, [biz bilan bog'laning](#). Huquqlaringiz haqida batafsilroq ma'lumotni [bu yerdan](#) topishingiz mumkin.

Agar siz boshqa IBMdan elektron marketing xabarlarini olishni istamasangiz, iltimos [NETSUPP@us.ibm.com](mailto:NETSUPP@us.ibm.com) ga elektron xabar yo'llang yoki har bir marketing elektron xabarda bo'ladigan tarqatishdan voz kechish yo'riqnomasiga rioya qiling.

[↑ Boshiga qaytish](#)

 **PRIVACY FEEDBACK**

Powered by **TRUSTe**

